



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education.....	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	

MILLIY XOSLANGAN LISONIY BIRLIKLARNI TEGGLASH TAMOYILLARI

Yorkulov Zafarjon Bakirovich
Mustaqil tadqiqodchi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilidagi milliy xoslangan lisoniy birliklarni til korpusida teglash tamoyillarini asoslash masalasi muhokama qilinadi. Korpus lingvistikasi, semantika, pragmatika va lingvomadaniyatshunoslik doirasida shakllangan ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil qilinib, milliy xoslangan birliklarning korpus annotatsiyasidagi o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Teglash tamoyillarini belgilashda korpus materialining reprezentativligi, autentikligi va muvozanatligi bilan bir qatorda, birlikning milliy-madaniy referenti, semantik tarkibi, kontekstual qo'llanishi va pragmatik vazifasini hisobga olish zarurati asoslanadi. Shuningdek, milliy xoslangan birliklarni yagona umumiy teg bilan cheklash ularning lingvomadaniy mazmunini to'liq aks ettira olmasligi dalillanib, ko'p qatlamli annotatsiya yondashuvining nazariy afzalliklari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, til korpusi, milliy xoslangan birliklar, korpus teglash, annotatsiya, lingvomadaniyat, semantika, pragmatika.

Abstract: The article examines the issue of establishing the principles for tagging nationally specific linguistic units of the Uzbek language in a language corpus. Based on a comparative analysis of scholarly approaches developed within corpus linguistics, semantics, pragmatics, and linguocultural studies, the study identifies the specific features of nationally specific units that are relevant to corpus annotation. The study substantiates the need to consider not only the representativeness, authenticity, and balance of corpus data when determining tagging principles, but also the national-cultural referent, semantic structure, contextual use, and pragmatic function of a linguistic unit. Furthermore, it is argued that the use of a single general tag for nationally specific units cannot fully represent their linguocultural content. Therefore, the theoretical advantages of a multilayered approach to annotation are highlighted.

Key words: Uzbek language, language corpus, nationally specific linguistic units, corpus tagging, annotation, linguocultural studies, semantics, pragmatics.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос обоснования принципов тегирования национально маркированных языковых единиц узбекского языка в языковом корпусе. На основе сравнительного анализа научных подходов, сформированных в рамках корпусной лингвистики, семантики, прагматики и лингвокультурологии, выявляются особенности национально маркированных единиц, имеющие значение для их корпусной аннотации. Обосновывается необходимость учета при определении принципов тегирования не только репрезентативности, аутентичности и сбалансированности корпусного материала, но и национально-культурного референта единицы, ее семантической структуры, контекстуального употребления и прагматической функции. Кроме того, доказывается, что использование единого общего тега для национально маркированных единиц не позволяет в полной мере отразить их лингвокультурное содержание, в связи с чем раскрываются теоретические преимущества многоуровневого подхода к аннотированию.

Ключевые слова: узбекский язык, языковой корпус, национально маркированные единицы, корпусное тегирование, аннотация, лингвокультурология, семантика, прагматика.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi bilan tilni katta hajmdagi matnlar asosida o'rganish imkoniyatlari kengayib, til korpuslariga ehtiyoj ortmoqda. Til korpusining asosiy amaliy samarasi katta hajmdagi til materiallarini tizimlashtirish, tezkor izlash, tasniflash, taqqoslash va statistik jihatdan tahlil qilish imkoniyatini yaratish bilan belgilanadi. O'z navbatida, milliy xoslangan birliklar korpusi o'zbek tilining milliy-madaniy leksikasini yagona raqamli bazada tizimlashtirish imkonini beradi. Bunda birlikning qaysi madaniy hodisa, urf-odat, marosim, qadriyat yoki ijtimoiy munosabat bilan bog'liqligi teglar bilan belgilanadi. Bunday korpusning amaliy ahamiyati leksikografiya va tarjimashunoslikda namoyon bo'ladi. Korpusda jamlangan va annotatsiyalangan materiallar milliy-madaniy, izohli va elektron lug'atlar yaratish, milliy xoslangan birliklarning muqobillarini aniqlash hamda



ularning tarjimada berilish usullarini tadqiq etish uchun ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Antropotsentrizm nuqtayi nazaridan, milliy xoslangan birliklar korpusi til va madaniyatning vaqt davomida o'zgarishini kuzatish uchun ham muhim manba hisoblanadi. Turli davrlarga mansub matnlarni qiyoslash orqali ayrim birliklarning qo'llanish chastotasi, ma'no ko'lam, pragmatik vazifasi va mazmunidagi o'zgarishlarni aniqlash mumkin.

Ayni damda milliy xoslangan birliklarni aniqlashning aniq mezonlarini belgilash, ularni semantik-madaniy kategoriyalarga tasniflash, teglar iyerarxiyasini ishlab chiqish va mazkur birliklarning real kontekstdagi qo'llanishini aks ettiruvchi annotatsiya modelini yaratish milliy amaliy lingvistikaning dolzarb va o'rganilishi lozim bo'lgan vazifalaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti tilshunoslik metodologiyasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, lisoniy birliklarni yirik hajmdagi autentik matnlar majmuasi asosida tadqiq etishni taqozo qila boshladi. Korpusga jamlangan ma'lumotlar bazasi til hodisalarini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilish, lisoniy birliklarning nutqda voqelanish qonuniyatlarini aniqlash hamda lingvistik xulosalarni statistik jihatdan asoslash imkoniyatini yaratdi. Leksikologiya, semantika, pragmatika, sotsiolingvistik, psixolingvistik, kognitiv tilshunoslik kesimida yaratiladigan til korpuslari maxsus annotatsiya qilinadi hamda kompyuter dasturlari yordamida avtomatik qidiruv va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishi ma'lum. Korpus tahlillaridan ko'zlangan asosiy maqsad til birliklarining real nutqdagi qo'llanish xususiyatlarini empirik materiallar asosida aniqlash, ularning semantik, grammatik, pragmatik va diskursiv xususiyatlarini obyektiv ravishda tavsiflashdan iboratdir.¹ Bunda har qanday ilmiy xulosa minglab, ba'zan millionlab matn birliklarining tahliliga tayangan holda chiqariladi. Shu sababdan lingvistik korpus muayyan til hodisasini imkon qadar to'liq, xolis va tizimli aks ettirishi lozim.

Reprezentativlik va muvozanatlilik tamoyillari asosida korpus tarkibiga kiritilgan matnlar til tizimini qay darajada aks ettirishi tadqiqot natijalarining ishonchligini belgilaydi. Ya'ni korpus tarkibidagi matnlar tasodifiy emas, aksincha, tadqiqot obyektining muhim xususiyatlarini qamrab oladigan tarzda tanlanishi zarur. J. Sinkler korpusni "tabiiy tilning real qo'llanishini aks ettiruvchi elektron matnlar majmui" sifatida ta'riflar ekan, uning ilmiy qiymati aynan representativlik darajasiga bog'liqligini ta'kidlaydi.²

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda milliy xoslangan lisoniy birliklarni korpusda teglash tamoyillari mavjud korpus lingvistikasi, semantika, pragmatika va lingvomadaniyatshunoslikka oid nazariy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish asosida ishlab chiqildi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi milliy xoslangan birliklarning tabiati va ularni korpusda aks ettirishga qo'yiladigan talablar orasidagi muvofiqlikni aniqlashga qaratildi. Tamoyillarni belgilashning dastlabki bosqichida korpus lingvistikasida shakllangan annotatsiya, representativlik, autentiklik, izchillik va reproduktivlik tamoyillari milliy-madaniy mazmunni ifodalovchi birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq qamrab olishi yoki olmasligi alohida baholandi. Til birliklarida milliy-madaniy mazmunning qanday shakllanishi va namoyon bo'lishini aks ettiruvchi lingvomadaniy hamda semantik xususiyatlar belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy xoslangan lisoniy birliklarni korpusda teglash uchun zarur bo'lgan metodologik talablarni tizimlashtirish natijasida ularni teglashda bir-birini to'ldiruvchi bir necha asosiy mezonlar ajratildi. Korpus materialini tanlashga qo'yiladigan metodologik talablar belgilandi. Milliy xoslangan birliklarning real nutqdagi qo'llanish xususiyatlarini obyektiv aks ettirish uchun korpus materiallari turli funksional uslub va kommunikativ janrlarni qamrab olishi zarur, degan xulosaga kelindi. Bunda badiiy, publistsistik, rasmiy, ilmiy-ommabop va so'zlashuvga xos materiallarning mavjudligi birliklarning turli kontekstdagi qo'llanishini qiyoslash imkonini beradi.

Yozma va og'zaki nutq, turli davrlar hamda hududiy variantlarning hisobga olinishi milliy xoslangan birliklarning qo'llanish doirasini to'liqroq ifodalashga xizmat qiladi. Muayyan lisoniy birlikning faqat boshqa tillarda muqobili mavjud yoki mavjud emasligi sababli milliy xoslanganlikni belgilashda birlikning o'zbek madaniyati bilan bog'liq referenti, tarkibidagi milliy-madaniy semantik komponent va muayyan ijtimoiy-madaniy

1 McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. - Cambridge: Cambridge University Press, 2012. - 294 p.; Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. - Oxford: Oxford University Press, 1991. - 179 p.; Biber D. Representativeness in Corpus Design // Literary and Linguistic Computing. - 1993. - Vol. 8, No. 4. - P. 243-257; Zaxarov V., Mengliyev B., Xamroyeva Sh., Xoliyrov O'. Korpus lingvistikasi: o'quv qo'llanma. - Toshkent, 2021. - 164 b.; Abjalova M. O'zbek tili milliy korpusida so'zshaklni leksikografik baza asosida qidiruv imkoniyatlari // "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar" Respublika I ilmiy-texnikaviy konferensiyasi. - 2021. - B. 12-17; Po'latov A. Kompyuter lingvistikasi. - Toshkent: Akademnashr, 2011. - 160 b.

2 Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. - Oxford: Oxford University Press, 1991.



tajribani aks ettirish darajasi kompleks ravishda hisobga olinishi lozim. Milliy xoslangan birlikni faqat lug'aviy shakli asosida belgilash ayrim hollarda noto'g'ri natijaga olib keladi. Birlikning milliy-madaniy mazmuni uning konkret matndagi qo'llanishi orqali aniqlanishi sababli kontekst teglashning majburiy komponenti sifatida belgilanadi. Shu asnoda bir xil lisoniy shaklning umumiy ma'noda yoki milliy-madaniy ma'noda qo'llangan holatlarini farqlash imkonini beruvchi kontekstual mezon ishlab chiqildi. Lisoniy birliklarni marosim va urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, qarindoshlik, milliy taomlar, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or, kasb-hunar, diniy tushunchalar va qadriyatlar kabi mazmuniy guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq. Bunday tasnif keyingi bosqichlarda muayyan kategoriyalarning chastotasi va funksional taqsimotini aniqlash imkonini beradi.

Korpus tilning real kommunikativ amaliyotdagi holatini namoyon etishi lozim. Korpus representativ bo'lishi uchun u tilning turli registrari, janrlari, kommunikativ vaziyatlari va funksional uslublarini mutanosib ravishda qamrab olishi shart. Ya'ni korpusning representativlik darajasi tanlovning sifat ko'rsatkichlariga bevosita bog'liqdir - millionlab so'zlardan iborat korpus ham noto'g'ri tanlangan material asosida tuzilgan bo'lsa, representativ hisoblanmaydi. Aksincha, metodologik jihatdan puxta tanlangan nisbatan kichik korpus ishonchli natijalar berishi mumkin. Korpus tarkibiga kiritiladigan matnlar maqsadli tanlov, sathli tanlov, tasodifiy tanlov yoki kombinatsiyalashgan tanlov usullari asosida shakllantirilishi mumkin.

Sathli tanlov usuli matnlarni oldindan belgilangan parametrlar – janr, davr, muallif, auditoriya, kommunikativ vazifa, geografik hudud va boshqa mezonlar asosida mutanosib taqsimlash imkonini berishi statistik jihatdan aniq xulosalar shakllantirishda muhim xususiyat hisoblanadi. Korpus tarkibidagi turli tipdagi matnlarning nisbiy ulushi ilmiy asoslangan mezonlarga muvofiq taqsimlanishi uning muvozanatlilikini anglatadi. Shakllantirilgan bazada muayyan janr yoki uslub haddan tashqari ustunlik qilsa, ayrim leksik, grammatik yoki pragmatik birliklarning chastotasi sun'iy ravishda ortib ketadi va shu bois tadqiqot natijalari obyektivligini yo'qotadi.

Muvozanatlilikni ta'minlashda quyidagi parametrlar hisobga olinishi lozim:

- turli uslublar qamrovi (badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy, so'zlashuv);
- turli kommunikativ janrlar qamrovi;
- yozma va og'zaki nutq nisbatida mutanosiblik;
- matn yaratilgan davrlar qamrovi;
- nutq mualliflarining ijtimoiy-demografik xususiyatlari (jins, yosh, kasb va boshqalar);
- geografik hudud va dialektal variantlar qamrovi.

Ta'kidlash joizki, korpusning sifat jihatdan to'g'ri shakllantirilishi uning hajmidan muhimroq. T. McEnery va A. Hardie korpusning ilmiy qiymati tadqiqot maqsadiga mos ravishda tanlangan materiallar tizimi bilan belgilanishini qayd etadilar.³ Shuning uchun maxsus korpuslarda hajm nisbatan kichik bo'lsa ham, representativlik va muvozanatlilik tamoyillari to'liq ta'minlangan taqdirda ular yuqori ilmiy samaradorlikka ega bo'lishi muqarrar.

Milliy-madaniy xoslangan lisoniy birliklarni jamlovchi korpusni shakllantirishda ham ushbu metodologik tamoyillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zotan, ushbu korpus turli janr va diskurslarga mansub autentik matnlarni qamrab olishi, erkak va ayol nutqi namunalarning mutanosib taqsimlanishini ta'minlashi, shuningdek, yozma hamda og'zaki nutq materiallarini o'z ichiga olishi zarur.

Korpus uchun til materialini to'plashda autentiklik, obyektivlik hamda reproduktivlik tamoyillariga ham tayanish shart. Ushbu tamoyillar korpusdagi til materialining ishonchlilikini, tadqiqot natijalarining xolisligini va ularning boshqa tadqiqotchilar tomonidan qayta tekshirilish imkoniyatini ta'minlab, empirik tadqiqotlarning metodologik poydevori bo'ladi.

Autentiklik tamoyili korpus tarkibiga faqat tabiiy kommunikativ muhitda yuzaga kelgan matnlarni kiritishni nazarda tutadi. Bunday matnlar tadqiqot maqsadida sun'iy ravishda yaratilmagan, real nutqiy faoliyat mahsuli bo'lishi lozim. J. Sinclair korpusni tabiiy til qo'llanilishining elektron shakldagi modeli sifatida tavsiflar ekan, uning ilmiy ahamiyati aynan autentik til materialiga asoslanishi bilan belgilanadi, deb hisoblaydi.⁴ Shu bois korpusda aks etgan til birliklari ularning haqiqiy uslubiy, pragmatik hamda semantik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirishi zarur.

An'anaviy lingvistik tadqiqotlarda til hodisalari aksariyat hollarda olimning kuzatuvlari asosida tavsiflanishi ma'lum, korpus lingvistikasida barcha xulosalar real matnlar bazasi va statistik ma'lumotlar bilan asoslanadi. Shu asnoda til birliklarining qo'llanish chastotasi, sintagmatik xususiyatlari va funksional imkoniyati aniq empirik dalillar asosida tavsiflanadi. Bunda tadqiqotchining subyektiv mulohazalari minimallashtirib, lingvistik xulosalarning obyektivligi kafolatlanadi.

3 McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.

4 Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford: Oxford University Press, 1991.



Korpus metodologiyasining uchinchi asosiy tamoyili - reproduktivlik tamoyili korpus annotatsiyasi jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy xoslangan konseptlarni semantik va pragmatik jihatdan teglashda annotatsiya mezonlari oldindan ishlab chiqilgan tavsiyalar, nazariy xulosalar asosida amalga oshirilishi zarur. Annotatorlar bir xil mezonlardan foydalangan holda bir xil til birliklarini o'xshash tarzda belgilashi manbaning ishonchliligini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korpus lingvistikasining zamonaviy rivojlanish bosqichida annotatsiya oddiy lingvistik birliklarni belgilash jarayonidan ko'ra kengroq metodologik mazmun kasb etmoqda. Dastlabki korpuslarda asosan morfologik va sintaktik teglash bilan cheklanilgan bo'lsa, bugungi kunda korpuslar semantik, pragmatik, diskursiv va kognitiv axborotni ham o'zida mujassamlashtiradigan ko'p qatlamli (multi-layer, multi-level) annotatsiya tizimlari asosida yaratilmoqda. Bunday yondashuv til birliklarini nafaqat formal, balki ularning ma'naviy, kommunikativ va madaniy xususiyatlari bilan birgalikda tavsiflash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Leech, G. Corpora and Theories of Linguistic Performance. - In: Directions in Corpus Linguistics. - London: Academic Press, 1992. - P. 105-122.
2. Lyons, J. Semantics. Vol. 1-2. - Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
3. McEnery, T., Hardie, A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. - Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
4. Sinclair, J. Corpus, Concordance, Collocation. - Oxford: Oxford University Press, 1991.
5. Wierzbicka, A. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. - New York: Oxford University Press, 1997.
6. Wierzbicka, A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. - Berlin: Mouton de Gruyter, 2003.
7. Қодиров, М. Ўзбек тилининг миллий-маданий лексикаси. - Тошкент: Фан, 2005.
8. Раҳматуллаев, Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. - Тошкент: Университет, 2000.
9. Раҳматуллаев, Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. - Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992.
10. Маҳмудов, Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб. - Тошкент: Фан, 2012.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020.
12. Ўзбек тили миллий корпуси. - Тошкент.
13. Gries, S. Th. Statistics for Linguistics with R: A Practical Introduction. - Berlin: De Gruyter Mouton, 2013.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.